



BOLALARNI TARBIYALASH VA ULARGA TA'LIM BERISH BORASIDAGI  
MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HUQUQBUZARLIGI UCHUN MA'MURIY  
JAVOGBARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

Muzaffarova Maftuna Yusuf qizi

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani IIB JXX HPB VYMB inspektor psixolog Kapitan Yuridik  
fanlar jaliyevalli@gmail.com

**Annotatsiya:** Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida yoshlar siyosatini qo'llab quvvatlash borasida ishlar tashkil qilinmoqda. Ammo yurtimizda bu boradagi ishlar o'z samarasini yetarlicha ko'rsatgani yo'q. Ushbu tadqiqot ishi doirasida fuqarolarning voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburiyatlarini bajarmaslik holatlariga misollar hamda uning dolzarblik darajasi ko'rsatiladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga xalqaro davlatlar tajribalari asosida taklif va tavsiyalar, aynan qaysi normalar bilan ularning javobgarlik masalalari takomillashtirilishi ko'rsatilib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi, ota-onalar, mas'ul shaxslar, ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlari, vasiylik va homiylik.

Davlatimiz rahbari yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab quyidagi fikrlarni bildirdi:

“Yoshlar bilan ishlash Prezidentdan tortib vazirgacha, hokimdan tortib mahalla raisigacha – hammamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Har qaysi hokim, har bir vazir, har qaysi mahalla raisi “Bugun men yoshlar uchun nima ish qildim? Ertaga farzandlarimiz manfaati uchun yana nima ish qilishim kerak?” degan savollarga javob beradigan, shunday e'tiqod bilan yashaydigan vaqt keldi.”<sup>9</sup>

Yuqoridagi fikrlar barchamizning yuragimizdan o'tishi lozim. Ammo ba'zi bir shaxslar xususan, ota-onalar, ota-onalar o'rnini bosuvchi shaxslar, vasiylik va homiylik organlari bu boradagi vazifalarni yetarlicha bajargani yo'q. atroflicha o'rganilganda, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47, 47<sup>1</sup>, 47<sup>2</sup>, 47<sup>4</sup>, 47<sup>6</sup>, 47<sup>7</sup>-moddalarida o'z aksini topgan bo'lib, aynan qaysi holatlar yuzasidan majburiyatlarni jabarmaslik bo'yicha javobgarlik normalari ko'rsatilgan. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 47-modda Bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik

“Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

<sup>9</sup> Shavkat Mirziyoyev: 2020-yil 25-dekabrda “Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega” nutqi



Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bolalarning majburiy umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishiga ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to'sqinlik qilish

bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,

bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.”<sup>10</sup> deb ko'rsatilgan.

Bu norma Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi 5.35-modda. Voyaga etmaganlarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillarining voyaga etmaganlarni boqish va tarbiyalash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari

“Voyaga etmaganlarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari tomonidan voyaga etmaganlarni boqish, tarbiyalash, o'qitish, huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik -ogohlantirish yoki yuzdan besh yuz rublgacha miqdorda ma'muriy jarima solishga sabab bo'ladi.

Voyaga etmaganlarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari tomonidan voyaga etmaganlarning ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari bilan muloqot qilish huquqidan mahrum qilishda ifodalangan huquq va manfaatlarini buzish, agar bunday muloqot bolalar manfaatlariga zid bo'lmasa, qasddan yashirishda. bolalarning yashash joyini belgilash to'g'risidagi sud qarori, shu jumladan sud qarori qonuniy kuchga kiringunga qadar bolalarning yashash joyini aniqlash to'g'risidagi sud qarori bajarilmaganda, ularning irodasiga qarshi bolalarning joylashgan joyi to'g'risida. sudning ota-ona huquqlarini amalga oshirish tartibi yoki ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kiringunga qadar sudning qonuniy kuchga kiringunga qadar bajarilmaganligi sababli ularning yashash joyini aniqlash to'g'risidagi sud qarori ota-onalarning bolalarni tarbiyalash va o'qitish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqlarini amalga oshirishga qaror qabul qilish yoki boshqacha tarzda to'sqinlik qilish, -

ikki mingdan uch ming rublgacha miqdorda ma'muriy jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlikni takror sodir etish -

to'rt mingdan besh ming rublgacha miqdorda ma'muriy jarima solishga yoki besh sutkagacha bo'lgan muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.”<sup>11</sup> deb ko'rsatilgan.

Bu ikkala norma bir biriga o'xshab ketadi. Ammo Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi 5.35-moddasida bu norma ancha kengaytirilgan.

<sup>10</sup> <https://lex.uz/acts/-97664>

<sup>11</sup> [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/)



Shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlarida :Ota va ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega ekanligi, ota-onaga o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shartligi, ota-onaga o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgarligi, ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shartligi, ota-onaga o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega ekanligi, ota-onaga bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi kerakligi, bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatilishi, ota-onaga o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanishi hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishlari, ota-onaga va bolalar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo'lganda vasiylik va homiylik organi bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun vakil tayinlashi shart ekanligi ko'rsatilgan. Yana alohida hollarda "Agar sud ota-onaga ham, bolani o'z qaramog'iga olgan shaxs ham bolaga lozim darajada tarbiya berishni hamda uni kamolotga etkazishni ta'minlay olmaydilar, deb topsa, bolani vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beradi." degan normalar ham kiritilgan. Bir jihatdan olganda vasiylik va homiylik organlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Shavkat Mirziyoyev: 2020-yil 25-dekabrda "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega" nutqi
2. <https://lex.uz/acts/-97664>
3. [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/)